

**“O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi,
filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash
USLUBIYOTI**

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiyot “O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallarida (matnda bundan buyon – Jamiyat deb yuritiladi) yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha qoidalarni belgilab beradi hamda Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

2. Quyidagilar Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi:

Jamiyat faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan funktsiya va lavozimlarini belgilash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha samarali oldini olish choralari ishlab chiqish.

3. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagilarni ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarni, mas’ul shaxslarni, amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o‘z ichiga belgilab olgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur.

4. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o‘zgarishi;

funktsiya yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli ravishda ta’sir ko‘rsatuvchi Jamiyatning ichki hujjatlari o‘zgarishi;

Jamiyat tuzilmasining, funksiyalarini amalga oshirishida o‘ziga xos jihatlarning o‘zgarishi, yangi funksiyalarning yuklanishi;

Jamiyat funksiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa shart-sharoitlarning kelib chiqishi.

5. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

qoldiq xavf-xatar – korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralarni qabul qilingandan so‘ng qoluvchi xavf-xatar (ya’ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni va tartib-taomillarni, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda);

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Jamiyat nomidan o‘z manfaatini ko‘zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish xavfi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarni tahlil qilish, ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-taomillar uchun o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi – Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan va Jamiyat funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

korrupsiyaviy xarakterlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

tartib-taomil – Jamiyat funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo‘linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud ma‘lum bir funksiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo‘yicha bir guruhga birlashtirish mumkin bo‘lgan harakatlar yig‘indisi;

funksiya – bir nechta tartib-taomilni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan Jamiyatning faoliyat yo‘nalishlarilaridan biri;

ekspert fikri – aniq fakt yoki hodisa bo‘yicha xodim yoki bo‘linmaning sub‘ektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori;

o‘ziga xos xavf-xatar – Jamiyat faoliyati va amalga oshirilayotgan funksiyalari spetsifikasidan kelib chiqadigan xavf-xatari;

filiyalning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi – Jamiyatning filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi hujjat.

6. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Komplayens nazorat departamenti tomonidan Jamiyat Boshqaruvi raisi topshirig'i asosida amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruvi raisi topshirig'ida baholashni o'tkazish aniq muddatlari ko'rsatiladi.

7. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda Komplayens nazorat departamenti quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarni jalb qilgan holda Jamiyatda xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

Jamiyat Boshqaruvi, filiallarga mazkur Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibga rioya qilish bo'yicha maslahatlar beradi;

Jamiyat Boshqaruvining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va Jamiyat Boshqaruvi raisi bilan kelishadi;

Boshqaruv, filiallarning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasini Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasiga umumlashtiradi;

Jamiyat Boshqaruvi raisi va tegishli filial direktorlariga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini taqdim etadi;

tasdiqlangan xavf-xatarlar xaritasi asosida filiallar tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlar loyihalarini ko'rib chiqadi va ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

Jamiyat Boshqaruvning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini ishlab chiqadi va Jamiyat Boshqaruvi raisi bilan kelishadi;

Jamiyat Boshqaruvi, filiallari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi asosida Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqadi;

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;

Komplayens nazorat departamenti zarur hollarda Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullardan qo'shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

tegishli filiallarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi va o'tkazadi;

tegishli filiallarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibda kelishilishini ta'minlaydi;

tegishli filiallarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarini ishlab chiqadi va ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibda kelishilishini ta'minlaydi;

tegishli filiallarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotida ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar zarur hollarda tegishli hududiy va tarkibiy bo‘linma xodimlaridan qo‘shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

II bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash

9. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni Jamiyat Boshqaruvi raisining tegishli buyrug‘i va unda ko‘rsatilgan muddatlar asosida amalga oshiriladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashning umumiy muddati uch oydan oshmasligi lozim.

10. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini dastlabki baholash va tegishli funksiyalar doirasida Jamiyat xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o‘z ichiga oladi.

11. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, pastdan (Jamiyat sugurta markazlari, filiallari va boshqaruv tarkibiy bo‘linmalardan) tepaga (Jamiyat boshqaruvi darajasigacha), mazkur bobning 12-21-bandlarida ko‘rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

12. Komplayens nazorat departamenti ushbu Uslubiyotiga 1-ilovada keltirilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish bo‘yicha Jamiyatning Boshqaruvi, filiallariga ko‘rsatma yuborilishini ta‘minlaydi.

Ko‘rsatmada tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini Komplayens nazorat departamentiga taqdim etish muddatlari ko‘rsatilib, bu muddat yigirma besh ish kunidan kam bo‘lmasligi kerak.

13. Jamiyatning Boshqaruvi Departamentlarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli Departamentlar tomonidan ishlab chiqilib, Komplayens nazorat departamentiga Jamiyat boshqaruvi uchun yagona Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish maqsadida kiritiladi. Jamiyat Boshqaruvi Departamentlarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi Komplayens-nazorat tomonidan Jamiyat Boshqaruvi raisi bilan kelishiladi.

14. Jamiyatning filiallarida Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullari tomonidan ishlab chiqiladi va keyin Jamiyat Komplayens nazorat departamentiga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

15. Jamiyat Boshqaruvi, filiallari tomonidan ishlab chiqilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, Komplayens nazorat departamenti xodimlari tegishli tarkibiy bo‘linmaga izoh berish yoki xaritaga tuzatish kiritish uchun so‘rov yuboradi. Bunda, so‘rovga javob so‘rov olingan kundan boshlab besh ish kunidan oshmagan muddatda yuborilishi lozim.

16. Komplayens nazorat departamenti xodimlari o‘z ekspertlik fikriga tayangan holda Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin.

17. Jamiyat Boshqaruvi, filiallarning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida Komplayens nazorat departamenti Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish muddati, markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmaning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi tasdiqlangan sanadan boshlab, o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

19. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi Jamiyat Komplayens nazorat departamenti taqdimnomasiga asosan Jamiyat Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

20. Qoldik korrupsiyaviy xavf-xatarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun Komplayens nazorat departamenti ushbu Uslubiyotning 2-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

21. Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati Komplayens nazorat departamenti va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullar taqdimnomasiga asosan Jamiyat Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

22. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar tomonidan tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasida belgilangan chora-tadbirlarga asosan filialda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi tasdiqlangan sanadan o'n ish kuni ichida ishlab chiqilib tasdiqlanadi.

Jamiyat filiallarining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi Komplayens-nazorat tuzilmasi bilan kelishilgandan so'ng tegishli filial direktori tomonidan tasdiqlanadi.

23. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi Jamiyat Boshqaruvi departamentlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda Komplayens nazorat departamenti tomonidan ishlab chiqiladi hamda Jamiyat Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

III bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi (har yillik) baholanishi

24. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta, qoida tariqasida yil boshida Jamiyat rahbarining tegishli buyrug'i asosida o'tkaziladi. Keyingi (har yillik) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash muddati 2 oydan oshmasligi lozim.

25. Yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ushbu uslubiyotning 2-bobida ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash tartibida amalga oshiriladi.

26. Har yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash boshlanishidan oldin Komplayens nazorat departamenti Jamiyatning Boshqaruvi departament mosh menejerlari, filial direktorlariga oldingi baholash davriga nisbatan qonunchilikda yoki ichki idoraviy hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlarni aniqlash maqsadida ushbu Uslubiyotga 4-ilovaga mos shaklda So'rovnoma yuboradi.

27. Komplayens nazorat departamenti Jamiyat Boshqaruvi departament bosh menejrlari, filial direktorlari tomonidan to'ldirilgan So'rovnomalarni yig'adi, tahlil qiladi.

IV bob. Jamiyatda amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash tartibi

28. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma'lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

Jamiyat funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va Jamiyatning ichki hujjatlari (tarkibiy bo'linmalar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari to'g'risidagi nizomlar va h.k.);

ichki tekshiruv materiallari, shu bilan birga xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha monitoring natijalari;

Jamiyatning xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;

Jamiyat faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma'lumotlar;

korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

Jamiyat xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik to'g'risida OAVdagi ma'lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

29. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida Jamiyatning har bir funksiyasi va tartib-taomili bo'yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish imkoniyatlari borligi bo'yicha tahlil qilish lozim.

30. Har bir funksiya quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiya.

31. O'rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o'ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi:

o'ziga xos yuqori xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos o'rta xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos past xavf-xatar xavf-xatarlar ko'zda tutilmagan va Jamiyatning Komplayens nazorat departamentining asosli xulosasi asosida istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin.

32. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarli hodisani amalga oshirishining ehtimoli (mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.1-jadvaldagi mezonlarga qarang) va korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat darajasi (mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.2-jadvalidagi mezonlarga qarang)ni hisobga olgan holda xavf-xatarlar ahamiyatlilik shaklidan foydalanib amalga oshiriladi (mazkur Uslubiyoti 5-ilovasidagi 5.1-rasm).

V bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarning qoldiq darajasini minimallashtirish choralari

33. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

har bir chora Jamiyat xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;

har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

34. Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi (mazkur Uslubiyotning 3-ilovasi).

35. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat Komplayens nazorat departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

VI bob. Yakuniy qoidalar

36. Zarurat bo'lganda, Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Komplayens nazorat departamenti tomonidan Jamiyat Boshqaruvi raisiga takliflar kiritiladi.